

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21094188>

Ekologik ta'lim va elementar kimyoviy bilimlar integratsiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga ongli munosabatini shakllantirish

Raximova Surayyo Ziyautdinovna –
Farg'ona davlat universiteti tyutori
E-mail: raximovasuraje0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishda ekologik ta'lim va elementar kimyoviy bilimlar integratsiyasining pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Tabiat hodisalari, suv, havo, tuproq, o'simliklar va hayvonot olami bilan bog'liq dastlabki kimyoviy tushunchalarni ekologik tarbiya mazmuniga uyg'unlashtirish orqali bolalarda kuzatuvchanlik, ekologik madaniyat, tadqiqotchilik kompetensiyasi hamda tabiatga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik-kimyoviy integratsiyalashgan faoliyatni tashkil etishning metodik asoslari va amaliy tavsiyalari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, kimyoviy bilimlar, ekologik madaniyat, integratsiya, tajriba faoliyati, ekologik kompetensiya.

Формирование осознанного отношения детей дошкольного возраста к природе на основе интеграции экологического образования и элементарных химических знаний

Аннотация. В данной статье раскрываются педагогические возможности интеграции экологического образования и элементарных химических знаний в процессе формирования осознанного отношения к природе у детей дошкольного возраста. Проанализированы вопросы развития у детей наблюдательности, экологической культуры, исследовательской компетентности и ответственного отношения к окружающей среде посредством включения первоначальных химических представлений, связанных с природными явлениями, водой, воздухом, почвой, растительным и животным миром, в содержание экологического воспитания. Кроме того, разработаны методические основы и практические рекомендации по организации интегрированной эколого-химической деятельности в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: экологическое образование, химические знания, экологическая культура, интеграция, экспериментальная деятельность, экологическая компетентность.

Developing preschool children's conscious attitude toward nature through the integration of environmental education and basic chemical knowledge

Annotation. *This article explores the pedagogical potential of integrating environmental education and elementary chemical knowledge in fostering a conscious attitude toward nature among preschool children. The study analyzes the development of children's observational skills, environmental culture, research competence, and responsible attitudes toward the environment through the incorporation of basic chemical concepts related to natural phenomena, water, air, soil, plants, and animals into the content of environmental education. In addition, methodological foundations and practical recommendations for organizing integrated environmental and chemical activities in preschool educational institutions are developed and presented.*

Keywords: *environmental education, chemical knowledge, environmental culture, integration, experimental activities, environmental competence.*

KIRISH

Yurtimizda olib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimi o'z oldiga yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash vazifasini qo'ygan. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya jarayonida yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini boyitish, ma'naviy olamini kengaytirish, tafakkurini shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bunday maqsadga to'laqonli erishish uchun, albatta ta'lim- tarbiya tizimiga bilim darajasi yuqori, yuksak ma'naviyat sohibi, tafakkuri keng, pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollangan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana oladigan pedagoglarni jalb qilish zarur. Hozirgi kunda jahon miqyosida ekologik muammolarning keskinlashuvi, atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati yosh avlodda ekologik madaniyatni erta yoshdan shakllantirish masalasini dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Ekologik tarbiyaning samaradorligi bolalarning tabiat haqidagi bilimlari, unga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabati va amaliy faoliyatining uyg'unligiga bog'liq. Shu sababli maktabgacha yosh davrida ekologik ta'limni boshqa fanlar bilan integratsiyalash asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'limda elementar kimyoviy bilimlar alohida fan sifatida emas, balki bolalarni o'rab turgan olamni anglash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Suvning holatlari, moddalar xossalari, ranglarning aralashishi, o'simliklarning o'sishi, havoning mavjudligi kabi hodisalarni kuzatish va tajribalar orqali o'rganish bolalarda ilmiy dunyoqarashning dastlabki elementlarini shakllantiradi. Aynan ekologik ta'lim va elementar kimyoviy bilimlarning integratsiyasi tabiat hodisalarini chuqurroq tushunishga, ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini sodda shaklda anglashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'nggi yillarda ekologik ta'limni erta yoshdan boshlab tashkil etish masalasi dunyo pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Global ekologik muammolar, tabiiy resurslarning kamayishi hamda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi natijasida bolalarda ekologik madaniyat va tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish zarurati kuchaydi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiya mazmunini boyitish va uni boshqa fanlar bilan integratsiyalash masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ekologik ta'lim nazariyasining shakllanishida rus va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, N.F.Vinogradova, S.N.Nikolaeva, A.A.Verbitskiy,

N.N.Kondrateva kabi tadqiqotchilar ekologik tarbiyani bolalarda tabiat hodisalarini tushunish, ularga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyatli munosabatni shakllantiruvchi pedagogik jarayon sifatida talqin qilganlar. Ularning ilmiy izlanishlarida ekologik bilim, ekologik ong va ekologik madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish masalalari L.S.Vygotskiy, J.Piaget, M.Montessori, L.A.Venger, A.V.Zaporojets kabi olimlarning ilmiy qarashlarida ham o'z aksini topgan. Ularning fikricha, maktabgacha yosh davri bolaning bilishga bo'lgan qiziqishi, kuzatuvchanligi va tajriba faoliyati jadal rivojlanadigan davr hisoblanadi. Aynan shu yoshda bolalarga tabiat hodisalarini amaliy kuzatish va tajribalar asosida tushuntirish yuqori natija beradi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham ekologik tarbiya va atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish muammolari keng o'rganilgan. Jumladan, R.J.Ishmuhammedov, N.N.Azizxo'jayeva, M.Ochilov, B.Xodjayev va boshqa pedagog olimlarning ishlarida shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiyani tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim va elementar kimyoviy bilimlarning integratsiyasi bolalarda tabiat hodisalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Masalan, suvning ifloslanishi, chiqindilarning tabiatga ta'siri, o'simliklarning o'sishi uchun suv va tuproqning ahamiyati kabi ekologik jarayonlarni oddiy kimyoviy tushunchalar bilan bog'lab tushuntirish bolalarda sabab-oqibat aloqalarini anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'lim va elementar kimyoviy bilimlarni integratsiyalashgan holda o'qitish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot metodologiyasi ekologik ta'lim va elementar kimyoviy bilimlar integratsiyasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini kompleks o'rganishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv bolalarda ekologik madaniyat, kuzatuvchanlik, tadqiqotchilik va tabiatni asrashga mas'uliyat hissini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ekologik ta'lim inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni anglash, atrof-muhitni asrashga oid bilim, ko'nikma va qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiya quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- tabiat haqidagi boshlang'ich bilimlar;
- tabiatga hissiy-ijobiy munosabat;
- ekologik mas'uliyat;
- tabiatni muhofaza qilishga oid amaliy ko'nikmalar;
- ekologik madaniyat.

Psixologlarning ta'kidlashicha, maktabgacha yosh bolalarda tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik va bilishga intilish eng yuqori darajada rivojlanadigan davr hisoblanadi. Shu bois ekologik tarbiya aynan ushbu bosqichda maqsadli tashkil etilishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga kimyoviy bilimlar murakkab nazariy tushunchalar shaklida emas, balki kundalik hayot va tabiat hodisalari orqali beriladi. Elementar kimyoviy bilimlar quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: Bolalar suv, qum, loy, tuz, shakar, yog', havo kabi moddalar bilan tanishadilar va ularning xossalarini amaliy tajribalar orqali o'rganadilar. Muzning erishi, suvning bug'lanishi, qorning erishi, mevalarning qurishi kabi hodisalar moddalarning o'zgarishini tushuntirish imkonini beradi. Bo'yoqlarni aralashtirish, suvda moddalarning erishi va erimasligini kuzatish orqali bolalar dastlabki kimyoviy jarayonlar

bilan tanishadilar. O'simliklarning o'sishi, urug'larning unishi, tuproq tarkibi va suvning ahamiyati kabi hodisalar ekologik hamda kimyoviy bilimlarning uyg'unligini ta'minlaydi.

Ekologik ta'lim va elementar kimyoviy bilimlar integratsiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda quyidagi ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi:

- ekologik bilimlar hajmi kengayadi;
- kuzatuvchanlik darajasi ortadi;
- mantiqiy fikrlash rivojlanadi;
- ekologik madaniyat shakllanadi;
- tabiatni muhofaza qilishga nisbatan mas'uliyat hissi kuchayadi;
- tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqish ortadi.

Natijada bolalar tabiat hodisalarini ongli ravishda idrok etishga, ekologik muammolar mohiyatini sodda darajada tushunishga va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat bildirishga o'rganadilar.

XULOSA

Ekologik ta'lim va elementar kimyoviy bilimlar integratsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Ushbu integratsiya bolalarning ekologik bilimlarini boyitish, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, ekologik madaniyat va mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar, kuzatishlar, tajribalar va loyihaviy faoliyatlar orqali bolalar tabiat hodisalarining mohiyatini anglaydilar hamda atrof-muhitni asrash zarurligini tushunib yetadilar. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida ekologik ta'lim va elementar kimyoviy bilimlar integratsiyasiga asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda tarbiyachilarning ekologik-kimyoviy kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
5. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
6. Mo'minov A., Yo'ldashev J. Ekologik ta'lim nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
7. Подъяков Н. Н. Исследовательская деятельность детей дошкольного возраста. – Москва: Педагогика, 2001.
8. Николаева С. Н. Методика экологического воспитания дошкольников. – Москва: Академия, 2010.
9. Piaget J. The Child's Conception of the World. – London: Routledge, 2002.
10. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
11. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.